

## Kafedraning ma'naviy-ma'rifiy ishlari

Pediatrica kafedrasida talabalar bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarda faol ishtirok etmoqda. Bu faoliyatning asosiy maqsadi bo'lajak shifokorlarda yuksak ma'naviy fazilatlarni, vatanparvarlik, insonparvarlik, bemorga hurmat va jamiyatga xizmat qilishga tayyorlik tuyg'ularini shakllantirishdan iborat.



Kafedramiz asisssenti Sobirova N.M institut ma'naviy-ma'rifiy ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Kafedramizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida 2124-sonli qaroridan kelib chiqqan holda mazkur qarorning 41-bandi bo'yicha OTMlarda amalga oshirilgan ishlarga muvofiq yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, OITS kasalligi giyohvandlik, ichkilikbozlik va tamaki chekish kabi illatlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarda o'tkazildi.



Institutda o'tkazilgan 5 muhim tashabbus bo'yicha sportning voleybol turi bo'yicha ayol-qizlar jamoasining respublika miqyosida II o'rinni egallashida o'z hissasini qushdi. OTM talabalari o'rtasida o'tkazilgan "Tafakkur sinovlari" ko'rik tanlovida I o'rinni egallashida, talabalarning "Zakovat" jamoasining II o'rinni egallashida va teatr studiyalarining sovrinli o'rinlarni egallashida jonbozlik ko'rsatdi. Bundan tashqari kafedramiz professor oqituvchilari bilan birgalikda Beruniy tumanida "Ma'rifat ulashib" tadbiri o'tkazildi.








Talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida va ichki turizmni rivojlantirish buyicha muzeylarga sayoxat tashkillashtirildi. Institut professor o'qituvchilari va talaba yoshlari 1000 qadam, 5000 qadam marafonlarida qatnashdi. Buyuk allomalar Alisher Navoiy, Zaxriddin Muxammad Bobur, Buyuk sarkarda bobomiz Amir Temur tavallud ayyomlari keng turda nishonlanishida faol qatnashdi. Taniqli shoir va yezuvchilar, O'zbekiston qahramonlari Ibroim Yusupov va Tulepbergen Qaypbergenovlarning 95 yillik yubiley kechasi ko'tarinki ruhda o'tishini tashkil etishda ishtirok etdi.



Kafedramizda har hafta marifiy-manaviy bo'lim tomonidan berilib boriladigan mavzular bo'yicha talabalarga axborot soatlari o'tkaziladi.





Bundan tashqari kafedramiz har yili Institut doirasida o'tkaziladigan Navro'z bayramiga faol qatnashib kelmoqda.





